ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Rezyume. Maqolada dunyo tilshunosligida mavhum otlarning falsafiy, psixolingvistik, kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida o‘rganilishi tahlil qilinadi. Korpus tadqiqotlari, yosh va neyrolingvistik tajribalar mavhum tushunchalarning murakkab kognitiv tabiati va kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mavhum otlarning subkategoriyalarga ajratilishi hamda diskursdagi pragmatik vazifalari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishi sifatida asoslanadi.

Resume. The article analyzes the study of abstract nouns in world linguistics based on philosophical, psycholinguistic, cognitive and sociolinguistic approaches. Corpus studies, age and neurolinguistic experiments demonstrate the complex cognitive nature and context-dependence of abstract concepts. The division of abstract nouns into subcategories and their pragmatic functions in discourse are justified as a relevant direction of modern linguistics.

Резюме. В статье анализируется изучение абстрактных существительных в мировой лингвистике на основе философского, психолингвистического, когнитивного и социолингвистического подходов. Корпусные исследования, возрастные и нейролингвистические эксперименты демонстрируют сложную когнитивную природу и контекстную зависимость абстрактных понятий. Разделение абстрактных существительных на подкатегории и их прагматические функции в дискурсе обосновываются как актуальное направление современной лингвистики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PREDMET-BELGI MA’NOLI AYRIM MORFOLOGIK ORALIQ SO‘ZLARNING QIYOSIY-TARIXIY TAVSIFI

Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Har bir til shu xalqning yozuvi va san’ati paydo bo‘lgunga qadar yaratgan eng qadimgi yodgorligidir. Muayyan bir til shu xalqning kelib chiqishi, qarindosh tillari, manzili haqida ishonchli ma’lumot bera oladi. Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, ona tilimiz ham qadimiy tarixga ega. Bu til, ya’ni qadimgi o‘zbek (turkiy) tili Markaziy Osiyo, Yevroosiyo, Yevropada ham amalda bo‘lgan. Bu tildagi ilk yozma yodgorliklar hozirgi kunga qadar topilgan yodnomalarga ko‘ra miloddan oldingi IV-V asrlarga borib taqaladi.

Mutaxassislarning bayonicha, qadimgi ajdodlarimiz miloddan oldingi III ming yillikning boshi – II ming yillikda markaziy Osiyoning sharqiy qismlari, Oltoy tog‘lari, Orol dengizi bo‘ylari, Dashti qipchoq o‘rmonlari, Turkiston va Uyg‘uriston viloyatlarida istiqomat qilishgan. Turkiy xalqlarning tarixiy an’analari, urf-odatlari, etnik tarixi hamda tili haqidagi ishonchli ma’lumotlar o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy manbalarda, xususan, Xitoy yilnomalarida uchraydi. Jumladan, miloddan oldingi III asrda turkiy xalqlarning Markaziy Osiyoda mustahkam, qudratli davlat tuzgani haqidagi ishonchli dalillar Xitoy manbasi – «Shimoliy sulolalar tarixi» asarida yozib qoldirilgan. Shuningdek, ajdodlarimiz haqidagi ma’lumotlar yunon tarixchisi Gerodotning (mil. oldingi V asr) «Tarix» asarida, arab va fors tili manbalarida, jumladan, XIII asrda yashagan tarixchi olim Rashididdinning «Jome-ut tavorix» asarida uchraydi[1].

XI asr boshlariga kelib ijtimoiy-siyosiy hayot bi-

[1] Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Darslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – B. 7-13.

lan bog‘liq holda tilimiz ham navbatdagi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Turkiy til o‘z mavqeyini qayta tiklay boshladi. Arab hamda fors tili bilan bir safda rivojlanish pallasiga kirdi. Bu yo‘lda buyuk siymo Mahmud Koshg‘ariy yorqin yalovbardor bo‘ldi. U o‘zining «Devon-u lug‘atit turk» («Turkiy so‘zlar lug‘ati») asari bilan tilimizning nazariy jihatlarini ilmiy jihatdan keng tahlil qildi. O‘z davrida faol qo‘llangan 8000 mingga yaqin so‘z ma’no nozikliklarini izohlab berdi. Shuningdek, mazkur so‘zlar izohi dalili sifatida 400 ga yaqin xalq ijodi namunalari (maqol, matal, rivoyat, afsona, xalq qo‘shiqlari) ni yig‘ib o‘z asarida jamladi.

Mahmud Koshg‘ariydan keyingi davrlarda yaratilgan bir qator mabalar, jumladan, Mahmud Zamaxshariyning «Asos ui-balog‘a», «Muqaddimat ul-adab» (XII asr), XII asrda yozilgan «At-tuhfatuz-zakiyati fil-lug‘atit-turkiya», Alisher Navoiy asarlari tili, qolaversa, eski o‘zbek tili bilan bog‘liq bir qancha lug‘atlar – Tole Imoni Hiraviyning «Badoye ui-lug‘at» (XV asr), «Abushqa» nomi bilan mashhur bo‘lgan lug‘at (XVI asr, Turkiya), Muhammad Yoqub Chingiyning «Kelurnoma» (XVII), Mirzo Mahdiyxonning «Sangloh» (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning «Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy» (XIX asr), XIX-XX asr boshlarida turkologlar tomonidan turli maqsadlar uchun yaratilgan lug‘atlar turkiy (o‘zbek) tili lug‘at qatlamidagi so‘zlar va ularning tarkibiy-mazmuniy mazmuni haqida bizga boy ma’lumotlar bera olishi bilan ahamiyatli sanaladi.

Manbalar lug‘at qatlamimizdagi tarkiban murakkab bo‘lgan ayrim so‘zlarning etimologik tahlilini berishda, bu bilan mazkur so‘zlarning qorong‘i nuqtalarini yoritishda yordam beradi. Etimologik tahlil orqali bugungi kun keng iste’moldagi ayrim so‘zlar mavhum tomonlarni – so‘zdagi ayrim leksik va grammatik mujmalliklarni aniqlashga, tegishli xulosalar chiqarishga erishiladi. Etimologik tahlil tadqiqotchiga til lug‘at tarkibining shakllanish jarayoni, uning qadimgi holatini kuzatishda shart-sharoit yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, so‘zning qachon, qaysi tildan, qanday yasalish qolipi asosida, qaysi til materiallari bo‘yicha, qanday shakl va ma’noda paydo bo‘lganini kuzatish va xuloslarga kelishga yordamlashadi. Bunday deyishimizga sabab shundaki, o‘zbek tili lug‘at qatlamidagi so‘zlar sirasining katta qismini qadimgi hamda eski o‘zbek tiliga oid birliklar tashkil etadiki, ularning ko‘pchiligi etimologik tahlilga zarurat sezadi. Bugungi kun is’temolidagi so‘zning tarixiy shakl ifodasi uning asl mazmuni bilan ham belgilanadi. Chunki so‘z ma’no ifodasining to‘laqonligi, albatta, uning tarixiy shakllanishi bilan uyg‘un kechadi.

O‘zbek lug‘atchiligi (xususan, izohli, etimologik lug‘atlar) da ayrim so‘zlarning grammatik xarakteristikasi (turkumlik belgisi) ham yoritiladi, pirovardida bu holat lug‘atdan foydalanuvchiga muayyan bir so‘z ma’no ifodasini batafsilroq, to‘laroq anglashga yordam bera oladi. Aniqrog‘i, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» dagi bir qancha so‘zlar (omonim bo‘lmagan so‘lar) ning ba’zida nutqiy imkoniyati asosida ikki, uch, hatto to‘rt so‘z turkumi doirasida izohlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ma’lumki, bugungi kun o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlarining vazifaviy imkoniyatlari, morfologik jihatdan oraliqdagi so‘zlarning birlamchi, ikkilamchi va h.k. vazifalari borasidagi ishlar salmog‘ini yetarli darajada deb bo‘lmaydi. To‘gri, so‘z turkumlarining kelib chiqishi, shakllanishi, oraliqdagi so‘z va grammatik shakllarning vazifaviy imkoniyatlari va ularning taraqqiyoti kabi masalalar borasida yaqin o‘tmishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi[1]. Biroq til funksional imkoniyatlarining davr bilan bog‘liq ravishda tobora kengayib, so‘z turkumlari polifunksionalligining o‘sib borayotgani, umuman, tildagi miqdor va sifat o‘zgarishlarini inobatga oladigan bo‘lsak, makur masalada amalga oshirilishi lozim ishlar talaygina.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (O‘TIL) da o‘z belgisiga ega so‘zlarning bir qismini morfologik jihatdan oraliq so‘zlar tashkil etadi. Oraliq so‘z deyilishining sababi ularning ikki va undan ortiq so‘z turkumi ostida izohlanishidir. Bu kabilar murakkab mohiyatli so‘zlar sanalib, O‘TILda ularga morfologik nuqtayi nazardan yondashilganda, ya’ni uning qaysi turkumdaligi matndagi holati, nutqiy vaziyati bilan hisoblashilganligiga ham guvoh bo‘lamiz[2]. Oraliq so‘zlarning lug‘atda so‘z turkumlilik nuqtayi nazaridan izohlanishida ularning birlamchi va ikkilamcha ma’nolari[3] inobatga olingan holda yondashilganligi ham kuzatiladi. O‘TIL tarkibidagi bir qator, jumladan*, aralash, boshqa, ugun, erta, issiq, sovuq, nari, beri, tashqari, teng, tub, o‘ksik, yuvosh, yoriq* va b. o‘z qatlamga oid so‘zlar hamda *avval, ajnabiy, aksincha, alomat, aqiq, asl, asosan, avval, axir, aynan, ayni ba’zan, ba’zi, benihoyat, dono, odilona, ojizona, faol, faqat, jadal,*

[1] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. –47 б.; Ботирова А. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифасининг функционал-синтактик таҳлили. Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри дисс... – Қарши, 2018. – 22 б.; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 40 б.

[2] Asadov T. Predmet-belgi ma’noli yasama so‘zlar va ularning lug‘atlardagi ifodasi// Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari. – Buxoro, №5. 2023. – B. 116-121.

[3] Ботирова А. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифасининг функционал-синтактик таҳлили. Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри дисс... – Қарши, 2018. – 22 б.

kasal, kasofat, mushkul, nisbatan, qabohat qadim va h.k. o‘zlashma (arabcha va fors-tojikcha so‘zlar) birdan ortiq so‘z turkumi doirasida sharhlanganligiga guvoh bo‘lamiz[1]. Masalan,muayyan bir so‘zning ikki (*aybdor* – hamot, hamsifat), uch (*bo‘lg‘si*– ham fe’l, ham sifat, ham ot), to‘rt (*keyin* – ham ravish, ham modal so‘z, ham ko‘makchi, ham bog‘lovchi) so‘z turkumi doirasida izohlangani kuzatiladi. So‘zlarga turkumlik nuqtayi nazardan yondashish borasida O‘TILning «Kirish» («Lug‘at tuzilishi va undan foydalanish») qismida shunday izoh keltiriladi: «Grammatik xarakteristikani (so‘zning turkumlik ko‘rsatkichi – A.T.) qayd etuvchi belgi zarur hollardagina berildi. Masalan, *kitob, go‘zal, kelmoq* so‘zlarining ot, sifat, fe’l ekani hech qanday belgisiz ham ma’lum. Shuning uchun bu so‘zlardan so‘ng *ot, sft., fl.* belgilari qo‘yilmadi. Quyidagi hollarda… grammatik xarakteristika berildi: 1) bosh so‘z o‘zi mansub bo‘lgan (asosiy) so‘z turkumidan boshqa turkumga oid ma’noga ega bo‘lsa, qaysi ma’nosi (yoki ma’nolari) bilan qaysi turkumga oidligi qayd etiladi; 2) so‘zning muayyan shakli shu shaklga xos ma’no va vazifadan tashqari lug‘aviy ma’no ham kasb etgan bo‘lsa, har ikki holat grammatik belgi bilan qayd etildi»[2]. Shu nuqtayi nazardan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dagi ayrim oraliq so‘zlarni kuzatamiz:

ISSIQ 1 ***ot*** Kasallikda yuzaga keladigan (ko‘tariladigan) harorat; isitma. *Oftob oyim erining so‘zini kuchlab tushdi: Issig‘i bor, yuzi ham qizarib, bo‘rtib turibdi.* (A.Qodiriy «O‘tkan kunlar»)

2 ***sft***. Yuqori haroratli, biror manba harorati bilan isigan, qizigan; issiq holatli. Issiq suv. Havo issiq. *Shundoq issiq kunda qora ko‘ylak kiyishidan azadorligi bilinib turardi.* (S.Ahmad «Ufq»)

SOVUQ 1 ***ot*** Past harorat, past temperatura. *Albatta, yo‘l yaxshi bo‘lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, lekin iz tushmagan yo‘ldan yurish mushkul.* (O.Yoqubov «Er boshiga ish tushsa»)

sft. *ko‘chma* O‘ziga jalb qilmaydigan; yoqimsiz. Sovuq odam. Sovuq bashara. *O‘zi sovuqning qilig‘i ham sovuq*. (Maqol) *Qulog‘idan kirgan sovuq so‘z, Ko‘ngilga borib muz bo‘lar*. (Maqol)

Umuman, bir so‘zning morfologik talqinidagi bir-biriga zid ikki holat (birinchidan, so‘z izohi ot va sifat (sft.) belgilari bilan berilgan, ikkinchidan, ma’nolar o‘zaro arab raqamlari bilan ajratilgan) ularning semantik-sintaktik mohiyatidagi hali mutlaqlashmagan, tiniqlashmagan o‘rinlar mavjudligidan dalolat beradiki, bu ham ularga nisbatan «morfologik oraliqdaligi so‘zlar» kabi termin birikmani qo‘llanishida mantiqiy asos bo‘ladi, deya olamiz. Bu holat so‘zning birlamchi va ikkilamchi ma’nolari bilan ham bog‘liq.

Bir so‘zning ikki turkum doirtasida tavsif etilishi nutqimizdagi so‘zlarning dastlabki, ilk ma’no ifodasini aniqlash bilan ham belgilanadi, ya’ni bu masala fanda dastlabki so‘z va ifoda muammosi bilan bog‘liq. Shuni inobatga olib ayrim oraliq so‘zlarni etimologik manba – «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati» (O‘TEL) ga[3] tayangan holda izohlash hamda O‘TIL dagi sharhlari bilan qiyoslashni joiz bildik. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida morfologik jihatdan sifat tarzida belgilanadigan *boshqa* so‘zi O‘TILda sifat bilan bir qatorda ravish hamda ko‘makchi deya izohlanadi, misollar bilan dalillanadi. Kuzatamiz: «1 Zikr qilingandan, aytilgandan, ko‘rilgandan yoki ko‘zda tutilgandan bo‘lak; o‘zga. 2 Mustaqil, alohida; biror xususiyati bilan farq qiladigan; boshqacha, o‘zgacha. 3 Begona, o‘zga, yot; birov. 4 *rvsh*. Tag‘in, yana, qayta,takroran. 5 *ko‘m. vzf*. Bo‘lak, tashqari»[4].

O‘TELda: **boshqa –** «o‘zga», «bo‘lak». Bu so‘zni o‘zga so‘zi bilan qiyoslashdan ma’lum bo‘ladiki, qadimgi turkiy tilda *ba:sh* so‘zi «alohida», «ajralib turuvchi» ma’nosini ham anglatgan. *Ba:sh* so‘zining ana shu ma’nosidan -iq (-ық) qo‘shimchasi bilan fe’l yasalgan va bu fe’lga -a qo‘shimchasini qo‘shib sifat yasalgan; keyinchalik 2-bo‘g‘indagi -i (-ы) unlisi talaffuz qilinmay qolgan[5]. Ko‘rinadiki, *boshqa* so‘zi bugungi kunga qadar birmuncha tarkiban va mazmunan o‘zgarishga uchragan bo‘lsa-da, asl ma’noda ham belgilik semasida bo‘lgan. Uning ko‘makchi vazifasida ham qo‘llana olishi so‘z ma’no ifodasi taraqqiyoti, aniqrog‘i leksemalarning yordamchilashishi (grammatikalizatsiya hodisasi) bilan bog‘liq.

Ildam so‘zi O‘TILda sifat-ravish-undov so‘z doirasida izohlanadi: 1 *sft*. Tez harakat qiladigan, chaqqon, tez. 2 *rvsh*. Chaqqon, tez harakat bilan. 3 *und*.s. Chaqqon, tez harakatga undashni bildiradi[6].

O‘TEL ga ko‘ra: «Bu sifat qadimgi turkiy tildagi «old» ma’nosini anglatgan il otiga -da qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan fe’ldan -m qo‘shimchasi bilan qayta yasalgan (il+da)+m – *ildam*; shunga ko‘ra u «oldinlovchi» ma’nosini bildirgan»[7]. Asli ot turkumiga aloqador (*old* so‘zi asosidagi) mazkur so‘zshakl vaqt o‘tib belgi ifodasi uchun qo‘llanadigan so‘zga aylangan.

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Birinchi jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 18-19.

[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – 559 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II. (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар) – Тошкент: Университет, 2000. –559 б.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Birinchi jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 607-608.

[5] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 29.

[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Ikkinchi jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 482-483.

[7] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 37.

Issiq so‘zi O‘TILda ot-sifat tarzida izohlanadi. O‘TELda mazkur so‘z O‘TILdan farqli holatada *issiq I, issiq II*, ya’ni omonim so‘z sifatida izohlanadi: issiq I «harorati ma’lum me’yordan yuqori». Bu sifat qadimgi turkiy tilda «harorat ko‘tarilishini»ni anglatuvchi *isi (*ысы) fe’lidan -қ qo‘shimchasi bilan yasalgan (ысық). Keyinchalik bu so‘z tarkibidagi s undoshi qatlangan, ikki o‘rindagi -i (-ы) unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan (ысық – ыссық – иссиқ). Issiq II «horarat». *Kasalning issig‘i baland edi.* Bu ot *issiq* I (sifat) dan ma’no taraqqoyoti yo‘li bilan o‘sib chiqqan; «belgi» – «shunday belgiga ega narsa»[1]. Mazkur so‘zlardagi o‘zaro «ma’no iplari»ning mavjudligi to‘laqonli omonimiya bo‘la olishiga to‘sqinlik qilmoqdaki, bu ham alohida kuzatishga ehtiyoj tug‘diradi. O‘TIL hamda O‘TELda *issiq* so‘zining turkumlikka munosabatida tafovut kuzatiladi: bu so‘z O‘TILda ot-sifat deb izohlansa, O‘TELda sifat-ot tarzida izohlanadi.

Oldin (ravish-ko‘makchi) so‘zining etimologik tahlili quyidagicha: bu so‘z «yuz tomon» ma’nosini anglatuvchi *ald* otiga qadimgi -in kelishik qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan, keyinchalik bu ot shakli ravishga ko‘chgan. Tovush almashishi tufayli «*oldin*» shakliga kelib qolgan[2]. Bu so‘zning ko‘makchilashishi nisbatan keyingi davrlar bilan belgilanadi.

Yuvosh (sifat-ravish) «sho‘xlik qilmaydigan», «mo‘min-qobil». Bu sifat qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan, «tinchlantir» ma’nosini anglatgan *yava (*йава*)* fe’lidan -sh qo‘shimchasi bilan yasalgan. So‘zlashuv tilida *yavvash* tarzida talaffuz qilinadi[3]. Bu so‘zning manbalarda sifat yoki ravish deya baholanishi til va nutq tafovutini inobatga olmaslik bilan bog‘liq.

Yoriq (sifat-ot) «yorilgan», «darz ketgan» ma’nosidagi bu so‘z qadimgi turkiy tilda «ajrat» ma’nosini anglatgan *yar (*йар*)* fe’lidan -iq (ық) qo‘shimchasi bilan yasalgan. Tovush almashishi hamda ulardagi qattiq-yumshoqlik belgisi yo‘qolishi tufayli mazkur so‘z *yoriq* holatiga kelib qolgan[4]. Ushbu so‘zda ham predmetlik, ham belgilik ma’no birdek kuzatilsa-da, ilk davrda belgilik ustuvorlik qilganligi tabiiy hol, albatta.

Mazkur tahlillardan anglash mumkinki, so‘zning etimologik tahlili uning dastlabki holati – so‘zning semantik-funksional tabiatini, shuningdek, so‘zning turkumlik xarakteristikasini belgilashda tayanch qilib olinadigan semantik, morfologik, sintaktik mezonlarning so‘zga tatbiq etishdagi muhim rolini ko‘rsatishda ham o‘ziga xos mavqe kasb etadi. Aslida ham, so‘zlarning ma’noviy, sintaktik, morfologik tabiatidan kelib chiqib turkumlash ular haqida nisbatan batafsil, bir-birini rad etmaydigan, aksincha, to‘ldiradigan, boyitadigan xulosalar chiqarishga imkoniyat beradi. Ayrim so‘zlarda kuzatiladigan «ko‘chish», ya’ni «ona turkum»dan uzoqlashib, boshqa grammatik kategoriya sari siljishi so‘zlarni turkumlashda qiyinchilik tug‘durishi tabiiy, bu holat tilning tadrijiy rivoji davomida, birdaniga emas, balki bir-ikki, ba’zida undan ham ko‘p vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladigan jarayon sanaladi. Ko‘chgan yoki ko‘chish oralig‘ida turgan so‘zlarning bugungi kundagi tabiati so‘z turkumlari bilan bog‘liq ba’zi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qolaversa, ayrim morfologik oraliq so‘zlarning muayyan bir turkumda barqarorlashishi (ma’lum bir turkumda muqimlashishi) uchun o‘ziga xos davr ham kerak bo‘ladi.

Rezyume: Bu maqolada morfologik jihatdan oraliq holatdagi so‘zlar, oraliq so‘zlarning turkumlikka munosabati, mazkur so‘zlarning izohli lug‘atlarda berilishi, o‘z va o‘zlashma qatlam oraliq so‘zlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, muayyan bir turkumda emas, balki ikki yoki uch turkum doirasidagi omonim bo‘lmagan so‘zlarning izohli, etimologik lug‘atlarda sharhlanishi masalasi borasidagi fikrlar bayon etilgan, misollar bilan izohlangan. Morfologik oraliq so‘zlarning manbalar bo‘yicha etimologik tahlili keltirilgan, diaxron ma’nolari bugungi kundagi ma’nolari bilan qiyoslangan, xulosalar chiqarilgan.

Резюме: В статье рассматриваются слова, находящиеся в морфологически промежуточном положении, их отношение к частеречной принадлежности, а также особенности репрезентации данных единиц в толковых словарях. Анализируются специфические свойства промежуточных слов исконного и заимствованного слоёв лексики, в частности вопросы лексикографического описания слов, не относящихся строго к одной части речи, а функционирующих в пределах двух или трёх частеречных разрядов, при отсутствии омонимии. Исследование иллюстрируется примерами. Представлен этимологический анализ морфологически промежуточных слов с учётом источников их происхождения, проведено сопоставление их диахронических значений с современными семантическими реализациями, сформулированы соответствующие выводы.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 47.
[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 57.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 179.
[4] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 172.

Resume: This article uses examples to explain opinions about morphologically intermediate words, the relation of intermediate words to categories, the representation of these words in explanatory dictionaries, the features of intermediate words of the proper and possessive layers, including the interpretation of non-homonymous words within the etymological framework of two or three categories in explanatory and etymological dictionaries. An etymological analysis of morphological intermediate words by sources is presented, diachronic meanings are compared with their modern meanings and conclusions are drawn.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDAGI INSONNING FIZIK XUSUSIYATLARINI IFODALOVCHI FRAZEONIMLARNING SEMANTIK-STILISTIK TAHLILI

G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tilning frazeologik qatlami unda so‘zlashuvchi xalqlarning boy tarixi, milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi manba hisoblanadi. Frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berish, ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida mazkur bobda frazeologik semantikaning frazeologik stilistika (frazeologik uslubiyat, frazeouslubiyat) bilan uzviy bog‘liqligini ochib berishni o‘z oldimizga maqsad qildik hamda ishimizning umumiy nazariy-fundamental asosi sifatida semantika stilistikaning, stilistika semantikaning ajralmas qismidir qabilidagi nazariy g‘oya tarafdorlari bo‘lgan I.V.Arnold[1], O.N.Seliverstova[2], I.A.Sternin[3], S.K.Bashieva[4] kabi tilshunoslarning chuqur ilmiy mushohadalariga asoslandik. Ushbu tilshunoslarning ta’kidlashicha, «frazeologik ma’no (frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug‘aviy mazmuni) ning konnotativ makrokomponenti so‘zlar kabi frazeologik birliklarning ham stilistik atributi bilan chambarchas bog‘liq, so‘z (agar u frazeologizm bo‘lsa, uning tarkibidagi affektiv mazmunga ega komponent) ning stilistik bo‘yoqdorligini konnotativning bir qismi deya qabul qilish o‘rinlidir»[5].

Frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishda konnotativ ma’no nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlarning konnotativ ma’nosi ularning individual, lug‘aviy, grammatik, funksional hamda frazeologizmlarning boshqa so‘zlar bilan munosabatidan paydo bo‘ladigan ma’nolariga asoslangan bo‘lib, aynan frazeologizmlarda juda kuchli namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham bizningcha, ko‘pgina frazeologlarning frazeologizmlar semantik tuzilishidagi stilistik bo‘yoq ularni boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi muhim belgi sifatida e’tirof etishlari o‘rinli. Mazkur g‘oya tarafdorlaridan biri K.Bozorboyev ta’kidlaganidek, «Frazeologizmlarning konnotativ ma’nosida to‘rt xil ma’no nozikligini kuzatish mumkin:

1. Frazeologizmlarda emotsionallik mavjud bo‘lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy emotsiyalar o‘zining ifodasini topadi;

2. Frazeologizmlar semantikasida ekspressivlik mavjud bo‘lib, ular orqali fikr tez, kuchli va obrazli ifodalanadi;

3. Frazeologizmlar semantikasida baho munosabat mavjud bo‘lib, ular orqali voqea-hodisa va jaray-

[1] Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – 4-е., изд., Издательство Вензи. 2010. – 382 с.
[2] **Селиверстова О.Н**. Труды по семантике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 960 с.
[3] Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Издательство Воронежского университета. 1985. – 130 с.
[4] Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23 с.
[5] Ратушная Е.Р. Антропономинирующая парадигма русской фразеологии: семантика, формирование, функционирование: Автореф. дис… докт. филол. наук. – Курган, 2001. – С 19.